XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 19-iyul VI-98-145-11-162-K/24 Uchko‘prik tumani

Uchko‘prik tumanidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 16-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 3-may kunidagi 05-19-01-1390-sonli xatiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 3-may kunidagi 05-19-01-1390-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tuman hokimining tumandagi ayrim geografik obyektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, ***(qabristonlar)*** davlat reyestriga kiritish taklifi **1-ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

SHuningdek, davlat reyestri bazasida mavjud bo‘lgan **2 ta** geografik obyektlar ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar va muassasalar hamda tashkilotlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda geografik obyektlarning ro‘yxatdan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.

4. Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatov mazkur Kengash qarorini **tuman hokimligi “Yangi Uchko‘prik” gazetasida shuningdek, rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarda** keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Ushbu Kengash qaroridan Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga yuborilsin.

6. Mazkur Kengash qarorining tasdig‘i xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

7. Ushbu Kengash qarorning ijrosini nazorat qilish **xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi G‘.Abdullayev** zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiritiladi.

Sessiya raisi M. M. Dexqonov

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani
Kengashining
2024-yil 19-iyuldagi
VI-98-145-11-162-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tumanda davlat reyestri bazasida mavjud bo‘lgan geografik obyekt nomlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasi tomonidan berilgan xulosasi
1.	Ko‘cha	Qurbonqashqar MFY	Nomsiz	Yaypanyo‘li	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Ko‘cha	G‘ozi G‘ijdon MFY	Nomsiz	Farovon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashining
2024-yil 19-iyuldagi
VI-98-145-11-162-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Tumanda davlat reyestri bazasida mavjud bo‘lmagan qabriston nomlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh	Ekspert komissiyasi tomonidan berilgan xulosasi
1.	Qabriston	Yangi bog‘ MFY	Nomsiz	**Maslahatbuva**	Yangibog‘ MFY Buyrak qishlog‘idagi qabriston “Maslahatbuva” qabristoni deb nomlanadi. Shayx Maslahatboshi Eshon tarixlari. Bu kishininig asl nomlari Mullo Do‘st Sahhof bo‘lib, taxminan 1700-yillar boshlarida Xo‘qandning Buljor (keyinchalik Yangi Chorsu) mahallasida Mullo Ro‘zimuhammad Sahhof xonadonlarida tavallud topganlar. Onalari Tojiniso Buyrak qishlog‘idan bo‘lganlar. Mahalla maktabida ilm olish bilan bir vaqtda otalaridan sahhoflik (muqovasozlik, kitob tikish va ta’mirlash) kasbini o‘qiganlar. Voyaga etgach, dillariga Alloh ishqi tushib, Dahbedga borib, Mahdumi A’zam hazratlari avlodlaridan bo‘lmish “Dada Sakbon”laqabli Mavlono Dahbediy qo‘llarida tariqat moqomlarini bosib o‘tganlar.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Qabriston	Mergan MFY	Nomsiz	**Sultonbobo**	Qo‘qon inqilobi davrida Sultonbobo bo‘sh yerlarni obod qilib chorvachilik bilan shug‘ullanib yurtni ocharchilikdan qutqargan ekan. Shu	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

№	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh	Ekspert komissiyasi tomonidan berilgan xulosasi
					insonning nomlari bilan atalgan.	
3.	Qabriston	Navro‘z MFY	Nomsiz	**O‘riklibuva**	O‘riklibuva qabristoni 1600-yillarda tashkil topgan bo‘lib, oldingi nomi Toptim buva deb atalgan. Keyinchalik O‘riklibuva deb atalgan. Bu oilaning hozirda o‘ninchi va o‘n birinchi avlodi yashab kelmoqda.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Qabriston	Chorbog‘ MFY	Nomsiz	**Xo‘ja Muhammad Vali**	Xo‘ja Muhammad Vale qabristoni tarixiy manbalariga ko‘ra bir yarim asrdan ko‘proq vaqt oldin ham bo‘lgan. Bundan 30-40-yil oldin bu qabristonga 40 dan ortiq qishloqlarni o‘z ichiga olgaan. Keyinchalik ko‘p qishloqlarni o‘z qabristonlari bo‘lib hozirda 29 ta qishloq qaraydi. Bu qabristonning yer maydoni 30 gektardaan iborat.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Qabriston	Puchug‘oy MFY	Nomsiz	**Boymardonbuva**	Qo‘qon xoni Xudayorxon saroyida **Boymardon** ismli odam bo‘lgan. U saroyda devonxona mudiri bo‘lib ishlagan. Keyinchalik u odam Puchug‘oy qishlog‘iga kelib yashagan. Uning ismi ushbu qabriston nomiga qo‘yilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Qabriston	G‘ozi-g‘ijdon MFY	Nomsiz	**G‘anchi**	Qadimda o‘ymakor hunarmanlar ko‘p bo‘lgan. Ularni Ganchkorlar deb atashgan. Vaqtlar o‘tib Ganch so‘zini odamlar G‘anchi deb atashgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Qabriston	G‘ozi-g‘ijdon MFY	Nomsiz	**Gul**	Qadimda tepalikda juda ham ko‘p gullar o‘sgan. Ushbu joyning nomini gul deb qo‘yishgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Qabriston	Qumariq MFY	Nomsiz	**Ostona Buvo**	Xo‘jamquli Eshon Ostonasi najot Eshon bobo xalq talaffuzida qisqartirilib Ostona Buvo nomini olgan milodiy 1818-yil vafot etgan Vasiyatiga ko‘ra shu xonaqohga dafn etilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Qabriston	Turg‘oq MFY	Nomsiz	**Turg‘oq**	Tarixiy manbalarga ko‘ra, Turg‘oq qishlog‘i strategik jihatdan qulay yerda joylashgani uchun	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

№	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh	Ekspert komissiyasi tomonidan berilgan xulosasi
					XIX asrlarga tegishli me’moriy yodgorlik bo‘lib, Shoh Salim maqbarasining atrofi 5 metrli devor bilan hamda 3 metrlik panjara bilan o‘ralgan. Shoh Salim Xalifa-Turkiston o‘lkasida mashhur bo‘lgan zotlardan bo‘lib Payg‘ambar (s.a.v) avlodi bir tomondan ahli tariqat Naqshbandiya suluki eshonlaridan biri sifatida hurmat qozongan.	
10.	Qabriston	Hasanqora MFY	Nomsiz	**Somsapaz**	Somsapaz qishlog‘ining tarixi savdogarlarning qatnovi gavjum joy bo‘lib, ularning yo‘ldan xorib to‘xtash va tamadi qilishga qulay joy bo‘lib, ishbilarmonlar tomonidan yengil tamadi uchun mazzali somsa tayyorlab sotgan, uning mazzasi barchaga maqul bo‘lib, dong‘i tarqagan. Shuningdek, bu qishloqning qabristoni esa 1970-yillarda tashkil topgan bo‘lib, dastlab bu yerga faqat chaqaloqlar dafn etilgan va “Go‘dak mozor” deb atab kelingan va Somsapaz aholisining aniq manzilli qabristoni bo‘lmaganligi sababli mahalla aholisining tashabbusi bilan ushbu maydon kengaytirilib kattalar ham dafn etib qilingan va shu qishloq nomiga asoslanib Somsapaz qishlog‘i qabristoni deb nomlangan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Qabriston	Farovon MFY	Nomsiz	**Mazzanglik**	Guzar boshi qabristoni 1700-1800-yillarda tashkil bo‘lgan.1800-1900-yillarda Qo‘qon xoni Xudoyorxon davrida sarkardasi mazzang millatiga mansub bo‘lgan. Ushbu sarkarda katta bir jangda g‘alaba bilan qaytganda xon unga oilasi uchun joy ajratgan. Shu davrdan boshlab bu joy Mazzanglik deb atalgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Qabriston	Katta Qorako‘l	Nomsiz	**Qorako‘l**	Tarixiy manbalarga ko‘ra, bu qishloqda ko‘l	Qonun hujjatlari

№	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh	Ekspert komissiyasi tomonidan berilgan xulosasi
		MFY			bo‘lib uning atrofi qamishzordan iborat bo‘lgan. Yillar o‘tib ko‘l kichrayib, tuprog‘i qora bo‘lib qolgan, shundan beri Qorako‘l deb nomlangan.	talablariga muvofiq
13.	Qabriston	Katta Qorako‘l MFY	Nomsiz	**Bakavul**	Tarixiy manbalarga ko‘ra, Xonlik davrida qishloq ichidan suv olib o‘tish uchun ariq kovlangan, shu vaqtda ishchilarga taom ulashishgan, shundan kelib chiqib, bu qishloqni nomi Bakovul nomi bilan atalgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14.	Qabriston	Istiqbol MFY	Nomsiz	**Nurotabuva**	Nurotabuva qabristoni 150-yildan ortiq tarixga ega. Qabriston yo‘lida uyg‘urlar qishlog‘i bo‘lib, keyinchalik ular ko‘chib ketgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Qabriston	Yulg‘unzor MFY	Nomsiz	**Xurmozor**	Yulg‘unzor MFY Yulg‘unzor qishlog‘idagi qabriston “Xurmozor” qabristoni deb nomlanadi. Tildan-tilga o‘tib kelgan bu sirli tepalik qishloq barpo bo‘lmasidan avval ya’ni mo‘g‘illar yoki arablar bosqini davrida barpo qilinganligi, usti yulg‘un va boshqa o‘simliklar bilan qoplangan bu tepalikni ostki qismida yashirin xonalar, kirish va chiqish eshiklari bo‘lganligi va mahalliy aholi tomonidan tildan-tilga o‘tib keladi. Qo‘qon xonligi davrida bu tepalikdan kuzatuv punkti sifatida foydalanilgan, ruslar Qo‘qon xonligiga bostirib kelishi tufayli xonlikdagi nufuzli ayollarni ruslar qo‘liga asr bo‘lib tushmasliklari uchun shu tepalik ichiga yashirishganligi va bu yerda yashiringan ayollarni ruslar qo‘liga tushish ehtimoli kuchayib xonlikni maxsus odamlari tomonidan bu tepalikni portlatib yuborilganligi va hozirda bu tepalik “Xurmozor” nomi bilan atalib kelinmoqda. 1800-yilda tashkil topgan Yulg‘unzor qishlog‘i aholisi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

№	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh	Ekspert komissiyasi tomonidan berilgan xulosasi
					dastlab Palaxon qishlog‘iga keyinchalik 1850-yillardan boshlab bu tepalikka marhumlarni dafn qila boshlashgan. Bu sirli tepalikni ko‘rinishi to‘ntarib qo‘yilgan qozonga o‘xshagan bo‘lib, balandligi 8-10 metrdan oshiq bo‘lgan.	